O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Республика Шахарсозлик экспертизаси

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel. 244-04-85, E-mail:davexpertiza@exat.uz, devexpertiza@umail.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: INOYATOV MIRABBOS MIRKOMILOVICH
Sana:08-02-2024 yil

Yig'ma ekspert xulosasi № 139072

Obyekt nomi ««Yashnabod tumani, Istiqbol ko‘chasi bo‘yida ko‘p qavatli turar-joy binolarini qurilishi. (Ko'p qavatli avtoturargohga ega 2-sonli ofis binosi, 3-qurilish bosqichi)» ishchi loyihasi.»

Buyurtmachi – «GOLDEN HOUSE DEVELOPMENT» MChJ
Bosh loyihachi - “INVEST PROEKT SERVIS” MChJ.
Litsenziya 16.12.2020 yil №AL-001530
Moliyalashtirish manbai - buyurtmachi o‘z mablag‘lari
Bosh pudratchi – buyurtmachi tomonidan aniqlanadi
Qurilish turi yangi qurilish
Murojaat raqami: № 87415

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Toshkent shahrida yer uchastkalarini ajratish amaliyotini o‘rganish Komissiyasining 2017 yil 8 avgustdagi 112-sonli bayonnomasi.

1.2. Toshkent shahar xokimining 2017 yil 11 sentabrdagi 1219-sonli qarori.

1.3. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2022 yilda buyurtmasi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.4. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2018 yil 19 dekabrda berilgan 2658T-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i (1 qism).

1.5. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2021 yil 16 dekabrda berilgan 1726-1726290-33904-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i (2 qism).

1.6. “Suvsoz” DUK tomonidan 2020 yil 20 fevralda berilgan 270/4-405-sonli texnik sharti.

1.7. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan 2021 yil 21 oktyabrda berilgan 01/588-sonli va 01/588-sonli texnik sharti.

1.8. “Hududgaz poytaxt” Gaz ta’minoti filiali tomonidan 2021 yil 29 sentyabrda berilgan 56901-T-sonli texnik sharti.

1.9. 2021 yilda «GEO INFORM» MChJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosa.

1.10. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2022 yil 22 sentabrda tuzilgan YAZB/1965-sonli shartnoma.

1.11. 2023 yilda “INVEST PROEKT SERVIS” MChJ tomonidan «Toshkent shahar Yashnabod tumani “Infiniti” turar-joy majmuasi qurilishi” ob’ektida 2-sonli ofis binosini loyixalashda zilzilabardoshligini va konstruktiv yechimlarini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan maxsus texnik shart (STU).

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra ishchi loyihaning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Ishchi loyihaga doir ma’lumotlar.

Normativ shamol bosimi - W_o = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - S_n = 0,50 kPa.

Qurilish maydonining zilzilabardoshliligi – 8 ball.

Loyihalangan bino poydevorining asosini cho‘kuvchan lessga o‘xshash loylardan tashkil topgan, ustidan to‘ldiruvchi gruntlar to‘shalgan.

Tuproq suvlari yer sathidan 7.5-13.0 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproqning muzlash chuqurligi – 0,7 m.

3.2. Bosh reja.

Mazkur ob’ekt Toshkent shahrining markazida, Yashnobod tumani S.Azimov ko'chasi (eski vinzavod o‘rnida) joylashgan. Ajratilgan qurilish uchastkasining konfiguratsiyasi rejada trapesiya shakliga ega.

Qurilish maydoni shimoliy tomondan – S. Azimov ko‘chasi, maktab va turar-joy qurilishi bilan, g'arbiy tomondan - Istiqbol ko‘chasi sog'liqni saqlash muzeyi, madaniyat va aholi dam olish markazi va turar-joy binolari bilan, janubdan – A. Qodiriy ko‘chasi, sharqdan – S.Azimov ko‘chasi 5-yo‘lagi poliklinika va yakka tartibdagi past qavatli binolar bilan chegaradosh.

3.3. Arxitektura - rejalashtirish yechimlari.

2-sonli ofis binosi – murakkab shakldagi 16 qavatli, yerto‘lali va texnik qavatli bino bo‘lib, o‘qlar bo‘ylab o‘lchamlari 51.6x26.1m. Yerto‘la qavat balandligi 3.32m, 1-qavat balandligi 5.17m, 2-6 qavatlar balandligi 2.72m, 7-qavat balandligi 4.22m, 8-16-qavatlar balandligi 3.62m, texnik qavatlar balandligi 3.35m va 3.88m (poldan shiftgacha).

Qavatlar orasidagi vertikal ulanishlar binoning yon tomonlarida joylashgan 2 ta tutunsiz zinapoyalar va ofis markazidagi yuk ko'taruvchi yadroga joylashtirilgan 6 ta lift orqali amalga oshiriladi. Binoda o‘t o‘chirish brigadasi ehtiyojlari uchun lift ham mavjud.

Bino qavatlarida quyidagilar joylashgan:

Yerto‘la qavatida – lift maydoni, tambur, zinapoya, texnik xonalar, kross xonasi, ventkamera, nasos xonasi va x.k.

Birinchi qavatda – xoll, tijorat xonalari, lift maydoni, tambur, server xonasi, zinapoya, hojatxonalar, o‘tish hududi, oshxona, kafe, qorovul xonasi, transformator xonasi, umumiy foydalanish joyi, maishiy chiqindi yig‘ish punkti va h.k.

2-7 - qavatlarda – avtoturargoh, rampa, tambur, lift hududi, zinapoya, krossovaya, omborxona va h.k.

8-qavatda – ofis xonalari, lift maydoni, tambur, xoll, krossovaya, hojatxonalar, kafe va h.k.

9-13 – qavatlarda - ofis xonalari, lift maydoni, tambur, xoll, krossovaya, hojatxonalar va h.k.

14-qavatda – ofis xona, xavfsizlik xonasi, yong‘in havfsizligi tayanch punkti xonasi, tambur-shlyuz, lift maydon, zinapoya, xoll, krossovaya va x.k.

15-16 - qavatda – ofis xonalari, lift maydoni, zinapoya, xoll, tambur, hojatxonalar va h.k.

Texnik qavatda – lift maydoni, zinapoya, texnik xonalar, yong‘in havfsizligi tayanch punkti xonasi, yo‘lak va h.k.

Binoda 4 ta lift ko‘zda tutilgan (2 ta yuk tashish va 2 ta odamlar uchun).

Xonalarni ichki pardozlash:

Devorlar – suvoq va suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan, keramik plita.

Pollar- keramogranit plita, keramik plita, beton.

Shift – gipsokarton, temir reyka va h.k.

Derazalar – alyumin profil.

Eshik – metall, alyumin profil va MDF.

Tashqi pardozlash:

Poypesh – granit tosh bilan qoplangan.

Ofisning tashqi bezaklarida bardoshli va ekologik toza materiallar qo'llanilgan. Ofis va tijorat binolarining chiziqli oynalari kompozit alyuminiy panellardan yasalgan dekorativ elementlar bilan qoplangan.

Binoning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 2087.45 m²

Umumiy maydoni - 29311.2 m²

Qurilish hajmi - 114713.21 m^3.

3.4. Konstruktiv yechim.

Binoning konstruktiv tuzilmasi – qattiq yadroli, monolit temirbeton.

Bino poydevori – qalinligi 2000 mm bo‘lgan monolit temirbeton plita.

Poydevor devorlari – qalinligi 400mm bo‘lgan monolit temirbeton.

Ustunlar – kesimi 600x600 mm va 1200x600mm, 1200x400mm bo‘lgan monolit temirbeton.

To‘sinlar – kesimi 400x600 mm bo‘lgan monolit temirbeton.

Ora yopma – qalinligi 200 mm bo‘lgan monolit temirbeton.

Diafragma – 400 mm qalinlikdagi monolitli temirbeton.

Zinapoyalari – monolitli temirbeton.

Lift shaxtasi - monolitli temirbeton.

Tom qismi – tekis, monolit temirbeton.

Issiqlik qatlami – 200 mm qalinlikdagi keramzit tosh.

3.5. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo‘riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, ShNQ 2.01.04-2018 “Qurilish issiqlik texnikasi” me’yoriy hujjati 2-jadval 2.1-punktiga asosan devorlar tashqi tomondan 50 mm qalinlikdagi jun-mineral qoplama bilan qoplangan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, sovutish, havoni almashtirish, suv ta’minoti va kanalizatsiya, yong‘inga qarshi suv ta’minoti, yong‘inni avtomatik o‘chirish, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv va boshqa tizimlar texnik talablarga muvofiq (ART II qismidagi texnik shartlar va loyihalashtirish topshirig‘iga muvofiq).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va kelishilgan:

- Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (texnik kengashning 15.05.2023 yildagi 13-2023-sonli bayoni).

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (20.03.2023 yildagi 67629-sonli xulosa)

- Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi (15.12.2021yildagi 04-213-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, konstruktiv yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.4. Buyurtmachi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-220-sonli farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish shart.

6.5. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishinni ta’minlaydi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. «Yashnabod tumani, Istiqbol ko‘chasi bo‘yida ko‘p qavatli turar-joy binolarini qurilishi. (Ko'p qavatli

avtoturargohga ega 2-sonli ofis binosi, 3-qurilish bosqichi)» ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Ekspert mutaxassis: Dadaxodjaev A., Ol’xovskaya V.K., Shakurov R., Musaev R.T., Raximova K

Bosh mutaxassis: AVAZOV XASHIMJON TURABAEVICH

Ishtirokchi ekspertlar: